

GIYOHVANDLIK VA UNING OQIBATLARI

Xudoyberdiyeva Nozima

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
ijtimoiy ish ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi.*

Annotatsiya: *Mazkur maqola giyohvandlik va uning natijasida kelib chiqadigan kasalliklar, undan qoladigan asoratlar, inson salomatligiga jiddiy ta'sirlari, kattalar va voyaga yetmagan bolalar orasida kopayib ketish sabablari haqida olib borilgan ilmiy – amaliy kuzatishlar amalga oshirilgan.*

Kalit so'zlar: *Giyohvandlik, Narkomaniya, Yoshlar, Kasallik, Kuchsiz, Ruju quyish, Nashavandlik, Kokainizm, Nikotinizm.*

Biz bilamizki giyohvandlik vaqtinchalik yengillikni ta'minlaydigan narsaga qarshi chidab bo'lmas istak bilan tavsiflanadi. Ammo bu vaqt tugagach, yo'qotish, umidsizlik, tashvish boshlanadi. Bu his-tuyg'ulardan xalos bo'lish uchun odam yana o'z istagini qondiradi. Ehtiyoj qondirilmaydi, balki ildiz otib ketaveradi.

Giyohvandlik, narkomaniya, bangilik — narkotik moddalarga o'rganib qolish, ruju qo'yish, aniqrog'i tabiiy yoki sintetik zaharli moddalar (ayrim dori moddalari)ni vaqtincha yoki surunkali iste'mol qilish natijasida kelib chiqadigan kasallik holatidir. Giyohvandlik organizm somatik va ruhiy holatining chuqur o'zgarishiga sabab bo'ladi va giyohvandni tanazzulga olib boradi. Giyohvandlikda o'zini to'xtatib bo'lmaydigan darajadagi giyohvand moddalarni iste'mol qilish mayli paydo bo'ladi, giyohvand moddaning miqdoriga nisbatan ehtiyoj, ruhiy va jismoniy bog'liqlik ortib boradi. Giyohvandlik asta-sekin boshlanib, surunkali davom etadi. Giyohvand moddalar dastlab xushnudlik, dimog'chog'lik (Eyforiya), xotirjamlik hissini uyg'otib, insonga rohat bag'ishlaydi, keyin bora-bora bu kasallikka aylanadi.

Narkotik moddalar dastlab xursandlik, vaqtichog'lik, hotirjamlik hissini uyg'otib, kayf qildirishi sababli iste'mol qilinib bora-bora kasallikka aylanadi. Quyidagi ikki holda narkotik moddalarga o'rganib qolish mumkin. Birinchi holdakishi o'z hohishidan tashqari, e'tiborsizligi natijasida narkotik moddalar humor qiladigan bo'lib qoladi. Bunday bangilik ko'pincha vrach buyurgan narkotik moddalarni noto'g'ri iste'mol qilish natijasida kelib chiqadi. Sal narsa ta'sir qilib, tashvish kuchayib ketadi, ba'zi kasallar og'riq, uyqusizlik, va dardning boshqa tomonlaridan qutulish maqsadida oxirini o'ylamay, vrach ko'rsatmasini ham pisand qilmay, o'zboshimchalik bilan narkotik modda dozasini oshirib qabul qilishadi. Bunday bemorlar odatda o'z ahvollarining yaxshilanishi dori tufayli bo'layotganini sezib, uni ichishni davom ettira boshlaydilar va ko'pincha ahvollarining og'irligidan nolib vrachni aldaydilar. Bu zaylda ish tutishning oqibati yomon bo'lib, narkotik moddalarga unchalik zarurat bo'lmasa ham, uni qabul qilinaveradi, dorining esa organizmga narkotik ta'siri yanada orta boradi va natijada narkotik moddaga moyillik kuchayib, u xumor qiladigan bo'lib qoladi

Giyohvandlik 2 zaylda avj olishi mumkin. Birinchi holda vrach buyurgan va bemorning ruhi hamda kayfiyatini oshirish xususiyatiga ega bo'lgan dorilarni uzoq vaqt va noto'g'ri qabul qilish; og'riq, uyqusizlik va boshqa dardlardan qutilish maqsadida dori miqdori (dozasi)ni oshirib borish; darddan tuzalib doriga unchalik ehtiyoj bo'lmasa ham, uni qabul qilaverish natijasida dorining narkotik ta'siri va miqdori orta borib, giyohvand moddaga moyillik kuchayib, uni inson organizmi talab qiladigan bo'lib qoladi. Ikkinchi ko'rinishi ongli ravishda rohatlanish (eyforiya) uchun maqsadida giyohvand moddalarga o'rganishdir. Giyohvandlikka odatda, irodasi kuchsiz, o'zini tiya olmaydigan, o'tkir sezgilarni o'zida sinab ko'rishga qiziquvchan, ruhan zaif va o'ta xudbin kishilar beriluvchan bo'ladi. Yoshlar tarbiyasidagi nuqson va kamchiliklar, giyohvand moddalarni iste'mol qilib yuruvchi katta yoshdagilarga taqlid va havas, oiladagi noxush sharoit (ota-onaning ichkilikboz yoki giyohvand bo'lishi) hamda giyohvand moddalarning oson topilishi yoki qo'l ostida bo'lishi ham giyohvandlikka sabab bo'lishi mumkin. Giyohvandlikka muhtalo bo'lganlarda xastalik borgan sari kuchaya borib, odatda, kutilmagan yomon oqibatlarga olib keladi. Giyohvandlik eyforiyasida, ya'ni kayfi chog'likda 2 bosqich kuzatiladi: qisqa muddatli —1-5 daqiqa davom etadigan o'tkir hissiyotli bosqich (haqiqiy eyforiya) va uzoq (1—3 soat) cho'ziladigan bo'shashish, tinchlanish davri. Bu bosqichlarning qisqa yoki uzoq bo'lishi qanday giyohvand modda qabul qilinganiga va miqdoriga bog'liq.

Giyohvandlikning hamma turi ham o'z rivojida giyohvand moddalarga o'rganib qolish yo'li bilan giyohvandlik sindromining shakllanishiga olib keladi. Bu sindromning rivojlanishida ham 3 bosqich farqlanadi: 1) giyohvand moddaga nisbatan organizm reaktivligining o'zgarishi va ruhiy bog'lanishning paydo bo'lishi; 2) xumor (abstinent) sindromi ko'rinishida jismoniy bog'lanishning yuzaga kelishi; 3) organizm barcha sistemalarining zaiflashishi (tolerantlikning pasayishi, ya'ni giyohvand moddalarning avvalgi miqdorini ko'tara olmaslik, xumorning surunkali davom etishi va ayrim hollarda polinarkomaniya ning vujudga kelishi). Giyohvandlikka muhtalo bo'lgan kishi giyohvand moddalarni qayta-qayta va ko'proq miqdorda iste'mol qila boshlaydi. Keyinchalik esa giyohvand moddalarsiz turolmaydigan bo'lib qoladi. Bunday ahvoldan qutilish va o'zini bir oz yengil his qilish uchun yana giyohvand moddaga ruju qo'yadi va oxir-oqibat giyohvand moddalarga hirs qo'yish kelib chiqadi. Organizmning dastlabki himoya reflekslari (ko'ngil aynishi, qusish) yo'qoladi. Bu davrda organizmda giyohvand moddalarga nisbatan moyillik shu darajada kuchayib ketadiki, go'yo bu moddalar avvalgi ta'sir kuchini yo'qotgandek bo'lib qoladi, endi avvalgidek eyforiya holatini his qilish, xumorni tarqatish uchun o'sha moddadan ko'proq miqdorda qabul qilgisi keladi. Oldiniga giyohvand modda birmuncha yoqimsiz ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, keyinchalik go'yoki uning holatini "normallashtirganga" o'xshaydi, bemor o'zini birmuncha yaxshi his qiladi, ish qobiliyati, ruhi go'yo tetiklashadi, pirovardida u haqiqiy giyohvand bo'lib qoladi.

Insonlarga gihohvandlikning ijtimoiy ta'siri-vaqtni, kuchni energiyani, his-tuyg'ularni, odamlar bilan zavqlanib muloqot qilishni, do'stlikni, sevgini hamdardlik qobiliyatini, yo'qotadi.

Giyohvandlarda avval ruhiy o'zgarishlar (tajanglik, kayfiyat buzuvchiligi, xotira pasayishi) paydo bo'lgan bo'lsa, keyinchalik jismoniy o'zgarishlar — jismoniy bog'lanib qolish sindromi (terlash, yurak urishi, og'iz qurishi, ozib ketish, qo'l-oyoqning titrashi va boshqalar) ro'y beradi. Agar giyohvand o'z vaqtida narkotik moddani qabul qilmasa, organizmda kuchli ruhiy va jismoniy o'zgarishlar, ya'ni giyohvandlikka xos og'ir holat — xumorlik Abstinensiya) sindromi paydo bo'ladi. Giyohvandlik opiomaniya (afyun qabul qilish), morfinizm, heroinizm ko'rinishida bo'ladi. Giyohvandlikning nashavandlik, kokainizm, nikotinizm (tamakiga ruju qilish), teizm (achchiq choy ichish) va boshqa turlari ham uchraydi. Ikki yoki undan ortiq xil giyohvand moddani surunkali qabul qilish — pol i narkomaniya deyiladi. Giyohvandlikning hamma turida ham organizm zaharlanadi va u juda og'ir kechadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. www.google.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.arxiv.uz
4. www.referat.uz
5. Арипова, А. (2019). Межкультурная коммуникация-как необходимый процесс глобализации. [6] Хатамова, Д. А. (2010). Проблемы идентификации и эквивалентности литературоведческих терминов (на материале русско-узбекской терминологии): Автореф. дисс. канд. филол. наук.
7. Khatamova, D. A. (2019). Sphere of reception of the term "artistic image". A young scientist. Kazan, 45, 283.
- 8 Хатамова, Д., & Мохигул, А. (2021). Тил ва сўзнинг фарқи. Общество и инновации, 2(5/S), 246-249.
- 9 Хатамова, Д. А. (2019). Сфера рецепции термина "художественный образ". Молодой ученый, (45), 386-389.
- 10 Хатамова, Д. А. (2016). К вопросу об идентификации некоторых литературоведческих категорий. Молодой учёный, 7, 1185.